



## DARS JARAYONIDA O'QUVCHILARNING FAOLLIGINI OSHIRISH UCHUN QIZIQARLI O'YINLARDAN FOYDALANISHNI TASHKIL ETISH

**Sobirova Gulzoda**

*Urganch davlat Universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada dars jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish uchun didaktik o'yinlardan qay tarzda foydalanish kerakligi haqida so'z boradi. Darsda o'yinlardan foydalanish nafaqat darsda o'quvchilarning faolligini oshiradi, balki o'yinlar orqali o'rgatilgan ma'lumotlar o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi, darsga nisbatan o'quvchining qiziqishi ortadi. Bu esa ta'lim sifatining yaxshilanishiga yordam beradi. Shuningdek, ushbu maqolada darsda o'qituvchi o'z maqsadiga erishishiga yordam beruvchi o'yinlar haqida ham ma'lumot berib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** intensive dars, interfaol o'yinlar, interaktiv metodlar, didaktika, koeffitsiyent, tafakkur, texnologiya.

**KIRISH.** Hozirgi kundagi global o'zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivijlanib borishi XXI asr o'qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o'z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi. Mustaqillikning dastlabki yillardanoq, butun mamlakat miqyosida ta'lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga kirishildi. Belgilangan maqsadlar muvaffaqiyatli amalga oshirilib, hozirgi kunda ta'lim sohasida yuksak samaradorliklarga erishilmoqda.

Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamlo shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Zero, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" g'oyalarini amaliyatga tatbiq etish mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va tarbiyachilarning ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ko'p jihatdan bog'liq.[1]

**ASOSIY QISM.** Hozirgi zamon fan va texnikasi jadal sur'atda rivojlanayotgan, zamonaviy axborot texnologiyalarining salmog'i keskin oshayotgan bir davrda o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki hozirgi davrda jamiyat ravnaqining tayanchi vazifasini aynan bilimli, o'z sohasida yuksak cho'qqilarni zabit etishga qodir bo'lgan yoshlar bajaradi. Yoshlarning ongini o'stirish, ularni jamiyat mezonlari bilan tanishtirihs esa aynan o'qituvchilarning vazifasi hisoblanadi.

Ayni damda o'qituvchilardan faqat bilimga bo'lish emas, balki yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lish, darsni zamon talablaridan kelib chiqqan holda, barcha o'quvchilarning qatnashishini inobatga olib tashkil etish talab etilmoqda. Shu o'rinda,



darsda o'quvchilarning diqqatini jalg etish masalalarini ko'rib o'tsak. Bugungi kunda deyarli hamma jihoz kompyuterlashtirilgandir. Hamma uyda televizo, kompyuter, smartfonlar bor. O'quvchilarning barchasi bu jihozlardan foydalanishni biladi. Shuni inobatga oladigan bo'lsak, oddiy ko'rgazmali qurollar va oddiy qog'oz bilan hozirgi kunda dars o'tish o'zining yaxshi natijasini bermaydi. Chunki o'quvchi uchun oddiy qog'oz va tarqatma materiallarning endi unchalik qizig'i yo'q. Shuni inobatga oлgan holda, darsni didaktik o'yinlar orqali tashkil etish, mavzu materiallarni o'yinlar orqali o'quvchilarga tushuntirishga katta e'tibor qaratish lozim. Mavzuda doir o'yinlar bir qarashda hech qanday irodaviy kuch, zo'riqish talab qilmaydiagndek ko'rindi. Shu tomoni bilan o'quvchilar diqqatini o'ziga tortadi. O'yinlar davomida esa o'quvchilar qanday qilib dars jarayoniga aralashayotganlarini sezmay ham qolishadi. Dars jarayonidagi o'yinlar bir tomondan o'quvchilarning darsda faolligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan ma'lumotlarning xotirada uzoq saqlanishini ta'minlaydi.

Hozirda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash borasida katta tajribalar olib borilmoqda. Barcha izlanishlar va tadqiqotlarning asosiy maqsadi ta'lim sifatini yanada yaxshi tomonlarga o'zgartirish, o'quvchilarning bilim salohiyati, jamiyat talablariga javob bera olish koeffitsiyentini yanada oshirish hisoblanadi.

So'nggi yillarda chet tillarini o'rganishga va o'qitishga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa chet tili darslarini, xususan, ingliz tili fanini qiziqarli qilib o'tishni, ya'ni turli xil interaktiv metodlardan, intensiv ko'rgazmalardan, o'quvchilarning diqqatini jalg qiluvchi turli xil interfaol o'yinlardan foydalanishni taqozo etmoqda. Yuqorida aytganimizdek, bunday o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning fanni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ayni damda xorijiy tillarni o'rganish muhim ahamiya kasb etayotganligi sababli, tillarni nafaqat oliy ta'limmuassasalarida, balki maktablarda, shuningdek, maktabgacha ta'likm muassasalarida ham o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Darslar o'ziga xos metodlar, qiziqarli usullar bilan o'tilmasa, o'quvchilarni darsga jalg qilish ancha murakkab vazifaga aylanadi. Agar dars davomida an'anaviy usullardan voz kechilib, qiziqarli olib borilsa, bu nafaqat dasr sifatini ta'minlaydi, balki o'quvchilar zerikishining oldini olib, shu bilan birga, faol bo'lagan talabalarning ham darslarda faol qatnashishini ta'minlaydi.

Chet tillarini o'rgatish jarayonida bir qator qiziqarli o'yinlar mavjud. Shuni ta'kidlash joizki, bolalarga til o'rgatishda shunday o'yinlardan foydalanish kerakki, unda o'quvchilarning hammasi birdek ishtirot etsin va darsdan yangilik olishga muvaffaq bo'lsinlar (masalan, har bir o'yindavomida yangi lug'atlar yodlanishi mumkin. agar har kuni shunday hol takrorlanadigan bo'lsa, o'quvchining lug'at boyligi ancha yuqori darajaga ko'tarilishi mumkin. lekin bu jarayonda ham rang-baranglikka imtilish, ya'ni doim bir xil o'yinni o'ynatishdan qochish lozim). O'quvchilarga darsni Grammatik tushunchalar bilan boshlash noo'rindir, bu ayniqsa kichik sinf



o'quvchilarining tezda zerikishiga olib keladi. Natijada darsga bo'lgan qiziqish hamda o'qituvchiga bo'lgam hurmat so'nishi mumkin. Ular bilan hatto salomlashish jarayonini ham noan'anaviy tarzda boshlash kerak. Masalan, o'qituvchi kirishi bilan darsni salomlashishga oid qandaydir inglizcha qo'shiq bilan boshlash (asosan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun motivatsion usul hisoblanadi) ham samarali usul hisoblanadi. Dars shu tariqa davom etsa, o'quvchilar har bir topshiriqqa bo'lgan e'tiborni yo'qotmaydi. Hattoki ular ingliz tili darslarini intizorlik bilan kutadigan bo'lishadi. Albatta, bularning hammasini o'qituvchi tashkillashtirishi kerak va bu ish pedagogning zimmasiga yuklatilgan eng katta mas'uliyat hisoblanadi. Shu o'rinda, chet tilini o'yinlar orqali o'rgatishning ba'zi turlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Chet tili darslarining samaradorligini oshirish uchun "**Rolli o'yinlar**"dan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu o'yinning afzallik tomonlari shundaki, u vaziyatdan kelib chiqib o'ynaladi. Mazkur o'yin nafaqat fan o'rganilishi uchun foydali, shu bilan birga, aqliy faoliyatni shakllantirishga ham yordam beradi. Bu o'yinda mavzular tanlab olinadi va bolalar dialog tashkil qilishadi. Masalan, yo'lovchining taksini to'xtatish sahnasi yoki kiyim do'konidagi sotuvchi va xaridorning muloqoti – bularning barchasini o'quvchilar tashkil qiladi. O'yin davomida ingliz tilida gapiriladi va tanlangan mavzu sahnalashtiriladi. Aynan shu o'yinda musobaqa metodidan ham foydalansak bo'ladi. Ya'ni o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, ular o'rtasida musobaqa tashkil qilinadi. Mazkur holatda o'quvchilar o'rtasida raqobat vujudga keladi. Ma'lumki, raqobat bor joyda rivojlanish bo'ladi. Agarda topshiriqni to'g'ri va tez bajargan guruh rag'batlantirilsa, qolgan o'quvchilarning ham darsga bo'lgan qiziqishi kuchayadi.

Ammo o'qituvchi faqatgina darsni o'yinlar orqali tashkil etish bilna cheklanib qolmasligi kerak. buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o'qituvchilarning doimiy ravishda fanlarni mutolaa qilish bilan shug'ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: " O'qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi"

Shunday ekan, o'quvchilar har doim o'qishva izlanishbilan band bo'lishlari lozim. Har bir olgan bilimini amaliyotda, ya'ni dars jarayonida qo'llashi ham uning zimmasidagi ulkan vazifa va majburiyat hisoblanadi. Shuningdek, darslarni mazmunli o'tkazish uchun didaktik o'yinlardan ham foydalanish mumkin.

OBJECT – bu o'yin o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Barchamizga ma'lumki, hcet tillarini o'rganishdagi eng muhim yo'nalish bu yangi so'zlarni yod olish hisoblanadi. O'quvchilarning xarakterini hisobga oladigan bo'lsak, har bir o'quvchi o'z usulida so'z yodlaydi. Shunga ishinchimiz komilki, o'yinlar orqali so'zlarni yodlash hamma uchun birdek mos keladi va bu jarayonni odatdagidan biroz yengillashtiradi. Mazkur o'yinimizda, dars paytida sinf xonadagi 15 ta buyum stol ustiga qo'yiladi va o'quvchilar kelib, bu buyumlarni ko'zdan kechirishadi. Keyin buyumlarning usti yopib qo'yiladi va o'quvchilardan ko'rib, esida qolgan buyumlari



ma'lum vaqt davomida doskaga yozilishi so'raladi. Eng ko'p so'zlarni topishga muvaffaq bo'lgan o'quvchi rag'batlantirilishi lozim. Bu jarayonda nafaqat darsda o'quvchilarning so'z boyligi oshadi, balki ularning xotirasi ham mustahkamlanib boriladi.

**XULOSA.** Bugungi kunda ta'lim jarayoni asosan, an'anaviy tarzda olib borilayotgan bo'lsa ham, ta'lim tiziminign barcha bosqichlarida chet tillarini uzlusiz o'rghanishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlash yanada takomillashtirilishini talab etadi. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, darslarda o'yinlardan foydalanish nafqat o'quvchilarning bilim darajasining oshishiga sabab bo'ladi, balki ularning dunyoqarashining kengayishiga ham sabab bo'ladi. Yana shuni ta'kidlash joizki, darsda foydalanilayotgan metodlarnign mavzusi har doim bir xil bo'lib qolmasligi zarur. O'qituvchi har doim rang-baranglikka intilishi, o'zidan yanfiliklarni kashf etishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B. S. Abdullayeva, A. A. Xoliqov, H. M. Sodiqov, Sh. Q. Primov, Sh. R. Zarmasov. Umumiyy pedagogika. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021.
2. [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz)
3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)